

MDH Hukumat rahbarlari kengashining bo'lajak yig'ilishi bo'lib o'tadi

2020-yil 6-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi raisligida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Hukumat rahbarlari kengashining navbatdagi yig'ilishi videokonferensiya shaklida bo'lib o'tadi.



Majlisda Hukumat rahbarlari Hamdo'stlikdagi iqtisodiy hamkorlikning dolzarb masalalari va koronavirus pandemiyasi keltirib chiqargan inqirozli hodisalarni bartaraf etish yuzasidan o'zaro fikr almashishi ko'zda tutilgan.

Xususan, yig'ilishda 2030-yilgacha bo'lgan davrda MDH iqtisodiy rivojlanish strategiyasining birinchi bosqichini (2021-2025-yillarda) amalga oshirish bo'yicha harakatlar rejasi, shuningdek, Hamdo'stlik davlatlarining turli yo'nalishlarda o'zaro aloqalarini muhtakamlashga xizmat qiluvchi boshqa dasturlar va kelishuvlar muhokama qilinishi rejalashtirilgan.

Hukumat rahbarlari kengashi majlisidan so'ng MDHga a'zo davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni yana-da mustahkamlash va rivojlantirishga qaratilgan qator hujjatlar imzolanadi.

Manba